



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Yuldashev Akrom

"MI Insurance" SK AJ Bosh direktorning birinchi o'rinbosari

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Received: xxxx Accepted: xxxx Issue: 1 DOI: xxxx	Maqolada O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari 3 bosqichda ko'rsatib berilgan bo'lib, ayni paytdagi sug'urta bozori ko'rsatkichlarining holati, mavjud muammolar va ushbu muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq fikr va mulohazalar, bunda jahon tajribasida sinalgan, aholi uchun qulay sug'urta mexanizmlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
KEYWORDS Sug'urta, sug'urta bozori, kompleks sug'urtalash, uy joy sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, sug'urta turlari, jaxon sug'urta bozori, davlat byudjeti, ko'zda tutilmagan xarajatlar, moliyaviy murakkablik.	

Kirish

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblangan Moliya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Moliya tizimining ajralmas qismi bo'lgan sug'urta sohasi ham bu borada e'tibordan chetda qolmadi albatta. Eng avvalo sohaning huquqiy asoslari yaratildi va shu asosda alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan sug'urta kompaniyalari va boshqa professional ishtirokchilar faoliyati shakllana bordi. Sug'urta sohasi o'zining iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, iqtisodiyotning qon-tomiri hisoblangan investitsiya mablag'lari bilan ta'minlash kabi jihatlarini namoyon eta boshladi.

Tahlil va natijalar. Umuman olganda, O'zbekiston sug'urta bozorining mamlakat mustaqilligining ilk davrlaridan hozirgacha bosib o'tgan rivojlanish yo'lini quyidagi bosqichlarga ajratgan holda o'rganish va tahlil qilish mumkin:

1–bosqich 1993-2002-yillar oralig'ini o'z ichiga olib, ushbu davrda milliy sug'urta bozoriga asos solindi. Bu bosqichda sug'urtaning qonuniy asoslari yaratildi, sug'urta bozorining ilk professional ishtirokchilari tashkil etildi, sug'urta bozorini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi shakllandi va ushbu maqsadlarga qaratilgan bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Xususan, 1993-yilda "Sug'urta to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi[1], O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi qabul qilinib, unga sug'urtaga bag'ishlangan alohida bob kiritildi[2]. 1994-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan, zamonaviy ko'rinishda o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi tashkil etilib, 1997-yilda ushbu kompaniyaga eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi maqomi berilib, uning ustav kapitali 60 mln. AQSH dollari miqdorida shakllantirildi[3]. 1997-yilda sobiq sovet tuzumida yagona sug'urta tuzilmasi hisoblangan davlat sug'urtasi tashkiloti (Gosstrax) negizida Prezident farmoni asosida "O'zagrosug'urta" davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi[4]. Mazkur yilda Vazirlar

Mahkamasining qarori asosida "Kafolat" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi ham tashkil etilib, shahar aholisi va sanoat korxonalarini sug'urtalash yo'lga qo'yildi[5]. Shuningdek, ushbu davr mobaynida davlat sug'urta kompaniyalari qatorida bir nechta xususiy va chet el ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari ham tashkil bo'ldi. 1998-yilda sug'urta bozorini tartibga solish va nazorat qilish vakolati Moliya vazirligiga berilib, ushbu vazirlik huzurida Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi[6]. Bu yo'nalishdagi yana bir katta islohotga sabab bo'lgan, mamlakat sug'urta bozorini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratib bergan hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 31-yanvarda qabul qilingan sug'urta bozorini erkinlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan Farmonining qabul qilinishi bo'ldi[7]. Mazkur hujjat O'zbekiston sug'urta bozorida tub burilish yasadi deb bemaol aytish mumkin. Sababi, aynan ushbu hujjat bilan mamlakatda ilk bor sug'urta xarajatlari tannarxga kiritildi, ya'ni yuridik shaxslarning ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sarf-xarajatlari yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'ini hisoblash chog'ida qonunchilikda belgilangan me'yorlar doirasida soliqqa tortiladigan baza hisobidan chегirib tashlanishi belgilandi. Shuningdek, sug'urta tashkilotlari uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod qilindi va buning natijasida bo'shaydigan mablag'lar sug'urtalovchilarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, mamlakat hududlarida keng tarmoqli agentlik shahobchalarini tashkil etishga, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga yo'naltirilishi belgilandi. Shuning natijasida ushbu davrda ko'pchilik sug'urta kompaniyalari respublika hududlarida o'z filiallarini tashkil etish bilan sug'urta xizmatlarini taklif etish imkoniyati kengaydi, ikkinchidan, sug'urta kompaniyalari o'zlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlab olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Yuqorida keltirib o'tilgan qonun, farmon va qarorlar hamda shu kabi boshqa hujjatlarning qabul qilinishi natijasida O'zbekiston sug'urta bozori shakllandi va bozorda ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari xilma-xilligi hamda ularning hajmi ortib bordi.

2-bosqich 2002-2012-yillar oralig'ini o'z ichiga olib, ushbu davrda sug'urta bozorini rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza yanada takomillashtirildi. Bu bosqichni sug'urta bozorining eng sarmahsul va samarali rivojlanish davri deb atash mumkin bo'lmaydi. Chunki aynan shu davr mobaynida O'zbekiston sug'urta bozorining bugungi miqdor jihatidan nisbatan yuqori darajaga erishishi uchun xizmat qilayotgan qator qonun va qonunosti hujjatlari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi nom bilan yangitdan qabul qilindi[8]. Ushbu qonunga kiritilgan asosiy o'zgarishlar sifatida sug'urta bozori professional ishtirokchilari tarkibining kengaytirilishi, ularning huquq va majburiyatlarining belgilanishi, sug'urta sohasini hayot sug'urtasi va umumiy sug'urta tarmoqlariga ajratilishi hamda sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari faoliyatini litsenziyalashning kiritilishini keltirish mumkin.

2002-yilning 5-aprelida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi yangi qonun talablaridan kelib chiqqan holda mamlakat sug'urta bozorini tartibga solishning yangicha tizimini shakllantirish asosida uni rivojlantirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasi qarorining[9] qabul qilinishi sug'urta bozorining yuqori darajada tartibga solinishiga olib keldi. Jumladan, ushbu qaror bilan sug'urta kompaniyalari va sug'urta brokerlari faoliyatini litsenziyalash talabi va ushbu talab bilan bog'liq sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdorlarining chegaralari belgilandi. Ushbu qaror asosida sug'urta faoliyati klassifikatori qabul qililib, unga ko'ra sug'urta sohasi hayot va umumiy sug'urta tarmoqlariga bo'linib, hayot sug'urtasida to'rtta klass va umumiy sug'urta tarmog'ida o'n yettita klass shakllantirildi.

O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining mazkur bosqichida aholining keng qatlamini va yuridik shaxslarni qamrab oluvchi ikkita yirik majburiy sug'urta turlari qonun asosida amaliyotga joriy qilindi. Jumladan, 2008-yilda "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish" to'g'risidagi qonun[10] hamda 2009-yilda "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun[11] qabul qilingan. Ushbu qonunlar mamlakatda olib borilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlari doirasida qo'yilgan ilk qadamlardan biri bo'ldi. Aynan ushbu majburiy sug'urta turlari mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini sug'urtaviy himoya qilish bilan birga, ular o'rtasida sug'urta xizmatlari to'g'risidagi tushunchalarni kengaytirish hamda sug'urtaga bo'lgan ishonchni o'rttirishga hissa qo'shmoqda.

3-bosqich 2012-yildan hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, ushbu davr sug'urta bozorida miqdoriy ko'rsatkichlarning yuqori darajada oshish davri bo'ldi. Ushbu bosqichda, ya'ni 2015-yilda yana bitta ommaviy xususiyatga ega majburiy sug'urta amalga kiritildi, bu Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun[12] bo'lib, ushbu qonun bilan barcha yo'lovchi tashuvchi korxonalar (Avtobus hamda taksi parklari, temir yo'l transporti va aviatashuvchilar) o'zlarining yo'lovchilar oldidagi fuqarolik javobgarligini sug'urtalashlari majburiy etib belgilab qo'yildi. Bu bosqichda 2021-yil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyalari soni 2012-yildagi 32 tadan 42 taga, sug'urtalovchilarning jami ustav kapitalari hajmi 67 mln. AQSH dollaridan 147.3 mln. AQSH dollari ekvivalentiga, sug'urta mukofotlari hajmi esa 73.6 mlrd. so'mdan 3 732.8 mlrd. so'mga yetdi[13]. 2021-yilda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun yangitdan kengaytirilgan tarzda qabul qilindi. Ushbu qonunda transchegaraviy sug'urta va qayta sug'urta, sug'urta sherikchiligi, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida elektron axborot almashinuvi masalalari, sug'urta qoplamalarini to'lash masalalari va shu kabi oldingi qonunda ko'zda tutilmagan bir qancha masalalar o'z aksini topdi.

Bu davrda sug'urta bozorida nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar oshdi, balki sug'urta bozorida tub islohotlarning amalga oshirilishiga asos bo'luvchi qonun hujjatlari va Prezident farmonlari qabul qilindi va shu asosda bozor ishtirokchilar uchun birmuncha erkinlashdi. Moliya vazirligi huzuridagi Davlat sug'urta nazorati inspeksiyasi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi 4412-sonli qaroriga[14] asosan Moliya vazirligi huzurida Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Yuqorida keltirilgan Prezident qaroriga asosan, 2019-2020-yillarda O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha 48 banddan iborat "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, ushbu yo'l

xaritasida ko'zda tutilgan vazifalar bosqichma-bosqich bajarilmoqda. 2021-yilning 23-oktyabr sanasida yana bir muhim hujjat - "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida Respublika Prezidentining 5265-sonli qarori[15] qabul qilindi va bu qarorda ham sug'urta bozorini rivojlantirishga qaratilgan strategik, 20 banddan iborat "2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining hayot sug'urtasi sohasini hamda shaxsiy sug'urta turlarini rivojlantirish bo'yicha Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'nggi 10 yillikning so'nggi 2019-2022-yillari davomida Yangi O'zbekiston uchun inson qadri oshirishga xizmat qiladigan, ishonchli sug'urta bozori yaratishga qaratilgan ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda sug'urta bozori uchun zarur bo'lgan sug'urta turlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish bosh masala bo'lib turibdi. Bu masalada xorij tajribasiga tayangan holda ish tutish foydadan holi bo'lmaydi albatta. Rivojlangan xorij mamlakatlari tajribalaridan shuni ko'rish mumkinki, aksariyat sug'urta sohasi rivojlangan mamlakatlar aholisi o'zlari va oila-a'zolarini turli baxtsiz hodisalardan, avtomashina va uy joylarini tabiiy va stixiyali hodisalardan sug'urta qilish odati tusga aylangan. Mamlakatimizda ushbu sug'urta turlaridan foydalanish ko'rsatkichlari juda past darajada bo'lib, natijada ushbu holatlardan zararlangan yuz minglab aholi turli hajmdagi moliyaviy yo'qotishlarga duch kelmoqda va bu hodisalar ko'p hollarda ularning qashshoqlashuviga sabab bo'lmoqda. Ushbu moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish maqsadida, davlat o'z byudjetidan ko'plab miqdordagi mablag'larni ajratishiga to'g'ri kelmoqda. Biz ushbu muammoga yechim sifatida Korxona va tashkilotlarning xodimlarini va aholini baxtsiz hodisalardan hamda ularga tegishli bo'lgan mol-mulkarni kompleks sug'urtalash mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni hozirgi davrning dolzarb masalalaridan deb hisoblaymiz.

Yana bir holat, mamlakatimizda xususiy tibbiyot muassasalarining soni yil sayin oshayotganligi sababli pullik tibbiy xizmatlar turi va hajmi ko'paymoqda. 2022-yil may oyi holatiga ko'ra yurtimizda xususiy shifo maskanlari soni 7320 taga yetdi. Tabiiyki aholi sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish maqsadida xususiy klinikalarga murojaat qiladi va bu xizmatdan foydalanish uchun ular tomonidan kattagina moddiy mablag'lar sarf qilinadi. O'z o'rnida sug'urta kompaniyalari aholiga o'zlarining sug'urta xizmatlarini taqdim etish orqali ushbu mablag'larni qoplash imkoniyatini yaratib berishlari mumkin.

Yuqoridagi sug'urta turlarini ommaviylashtirishning zarurligini quyidagi ma'lumotlar bilan asoslash mumkin: Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, jarohatlanish, zaharlanish va ayrim tashqi ta'sirlar sababli yuz beradigan hodisalar natijasida 2021-yilda qariyb 100 mingdan ortiq kishida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik holati yuzaga kelgan. Inson har qanday yengil tan jarohati olsa yoki tanasining biror a'zosi shikastlansa yaxshi davo topish uchun o'rtacha hisobda 1 million so'mdan kam bo'lmagan miqdorda moddiy chiqimga duch keladi. Agar tana a'zosining jarohati va shikastlanishi o'rtacha yoki og'ir holatda bo'lsa, buning uchun talab qilinadigan moddiy xarajat 4-5 million so'mdan ortiq mablag'ni tashkil etadi. Ushbu statistik ko'rsatkichlardan, mamlakatda aholini ijtimoiy himoyalash, bunday himoyaning keng tarqalgan usuli sifatida sug'urtalash mexanizmining chinalik darajada zarur ekanligini ko'rish mumkin.

Respublika bo'ylab sodir bo'layotgan tabiiy va texnogen hodisalarning ayrimlariga etibor qaratadigan bo'lsak, masalan, Buxoroda 2020-yilning aprel oyida yuz bergan tabiiy ofat, ya'ni kuchli shamol oqibatida aholi xonadonlari va korxonalar binolariga yetkazilgan zararlarni o'rganish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tuzilgan tezkor viloyat shtabi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, viloyat bo'yicha jami 5293 ta binolarning 378 ming 238 kv.metr tom qismida shifer qoplamalari, 1630 kv.metr binoning devorlari, 15415 dona eshik va derazalariga shikast yetgan. Kuchli shamol va yog'ingarchilik oqibatida viloyat bo'yicha 42 ming 400 dona yirik daraxtlar sinishi va qulashi qayd qilingan. Binolar va daraxtlar ostiga qo'yilgan yuridik va jismoniy shaxslarning 415 dan ziyod avtotransport vositalariga jiddiy ziyon yetgan.

O'sha yili Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborida yuz bergan avariya natijasida yuzaga kelgan suv toshqini sababli Sardoba, Mirzaobod, Oq oltin tumanlarida 4710 ta uy vayron bo'lgan. Ushbu uylarning atigi 32 tasi sug'urtalanganligi ma'lum bo'ldi (ushbu uylar tijorat banklaridan kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilganligi tufayli

bankning talabi asosida sug'urtalangan). Ushbu 32 ta xonadonga yetkazilgan zarar uchun sug'urta tashkilotlari tomonidan bor yo'g'i 1,6 milliard so'm tovon puli to'lab berilgan. Bir necha yuzlab avtotransport vositalariga zarar yetgan.

Sirdaryodagi "Sardoba suv toshqini" sababli mamlakat iqtisodiyoti ham katta zarar ko'rdi. Aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida toshqindan zarar ko'rgan salkam 4,8 ming oilaga 186,6 milliard so'mlik moddiy yordam mablag'lari berildi. Shundan 4541 ta oilaga 40 million so'mdan, 249 ta oilaga esa 20 million so'mdan pul mablag'lari berilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan zararlarni davlat tomonidan qoplash uchun sarflangan pul mablag'lari katta miqdorni tashkil etib, bu o'z o'rnida mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Vaholanki, mazkur obyektlar sug'urtalangan holatda, ko'rilgan zararlardan davlat byudjetidan emas, balki sug'urta kompaniyalarining zahiralardan qoplab berilgan bo'lar edi.

Mamlakatimizda tabiiy ofatlarning eng mudhishi hisoblangan zilzila hodisasining yuz berishi sababli ham ko'plab aholi ziyon ko'rmoqda. Yaqin o'tmishni qaraydigan bo'lsak, 1966-yil (bundan 56 yil oldin) – 26-aprel kuni Toshkentda kuchli zilzila ro'y berganini hanuzgacha ko'pchilik eslaydi. Zilzilaga shaxsan guvoh bo'lgan tarixchining so'zlariga ko'ra, yer shu qadar larzaga kelganki, ko'plab imoratlar butunlay qulab tushgan va ularning ostida odamlar ham qolib ketib nobud bo'lgan. Ushbu zilziladan keyin o'tgan yillar davomida mamlakat hududi bo'ylab ko'plab yer qimirlashlari sodir bo'lgan, jumladan Toshkent shahrida yana besh marta nisbatan kuchli zilzila, 300-marta yer chayqalishi va silkinishi kuzatilgan.

Jamiyatda texnogen ofatlardan yana biri hisoblangan yong'in (o't) chiqish holatlari ham ko'plab sodir bo'lib turadi. Favqulotda vaziyatlar vazirligi axborot xizmatining bayonotiga ko'ra, mamlakatimizda 2020-2021-yillarda 11 000 ga yaqin yong'in sodir bo'lgan bo'lib, moddiy zarar miqdori bir necha yuz milliard so'mdan oshgan.

Yuz bergan baxtsiz hodisalarni tahlil qilar ekanmiz, ular ichida yo'l-transport hodisalarining ham tobora ortib borayotganligini guvohi bo'lamiz. Ushbu xavf bo'yicha ham aholi ko'plab moliyaviy yo'qotishlarga duch kelmoqda. Ichki ishlar organlarida qayd etilgan bunday hodisalar, YHXBB statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda 8588 ta, 2020-yilda 7000 tani tashkil etgan. 2021-yilda esa jami 9000 ga yaqin YTH ro'y

bergan bo'lib, ularda 1 964 kishi hayotdan ko'z yumgan, 6 886 kishi esa turli darajadagi tan jarohatlari olgan. Bu kabi baxtsiz hodisalar natijasida yo'l-transport hodisasi ishtirokchilarining avtotransport vositalariga ham katta miqdordagi moddiy zararlari yetkazilganligi shubhasiz.

Umuman olib qaraganda, O'zbekistonda har yili tabiiy va texnogen ofatlar o'rtacha 1,4 million kishiga zarar yetkazib, ushbu zararlarning qiymati o'rtacha 3 milliard AQSH dollaridan ortiqni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich mamlakatning 2021-yildagi YAIMining 4,5 foizini tashkil etishini ko'rish mumkin.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda ta'kidlash joizki, mamlakatimiz aholisini moliyaviy yo'qotishlardan himoyalash maqsadida korxona va tashkilotlarning xodimlarini baxtsiz hodisalardan jamoaviy sug'urtalash, oilalarni barcha oila-a'zolarini yagona sug'urta polisi orqali baxtsiz hodisalardan hamda ularga tegishli bo'lgan mol-mulkni kompleks sug'urtalash mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim. Mazkur kompleks sug'urtalash mexanizmi orqali quyidagi risklar natijasida ko'riladigan moliyaviy yo'qotishlar sug'urta himoyasiga olinishi kerak:

- insonning hayoti va sog'lig'ini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, bunda sug'urtalanuvchining o'zi va yaqinlariga yetkazilgan zararlari sug'urta hodisasi sifatida qabul qilinadi;

- sug'urtalanuvchining uy-joyini turli tabiiy va texnogen hodisalar natijasida yetkaziladigan zararlardan sug'urtalash. Bunda sug'urta hodisasi sifatida yong'in, mexanik shikastlanish, uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari, tabiiy va texnogen ofatlar qabul qilinadi;

- transport vositalarini kompleks sug'urta qilish (olib qochish, avtotransportning ustiga biror bir predmetning tushishi, uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zarar, yo'l transport hodisasi).

Mazkur sug'urta turlarining ommaviylashuviga erishish maqsadida davlat tomonidan turli soliq imtiyozlarini joriy etish, sug'urtalovchilar tomonidan assistans xizmatlarini tashkil etish orqali sug'urtalanuvchilarga qulayliklar yaratib berish hamda sug'urta shartnomasini zararsiz yakunlagan sug'urtalanuvchilarga keyingi shartnomani tuzishda bonuslar taqdim qilish o'z samarasini beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan "Sug'urta to'g'risida"gi 358-II -sonli qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. Ikkinchi qism, 52-bob. Sug'urta. <https://www.lex.uz/docs/180552>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 18-fevraldagi PF-1710- son "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/docs/168879>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-fevraldagi PF-1713- son "O'zagrosug'urta" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/docs/358335>.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 14-martdagi 144-son "Kafolat" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 8-iyuldagi 286- son "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 31-yanvardagi PF-3022- son "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/docs/150015>.
8. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan. <https://www.lex.uz/docs/40253>.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://www.lex.uz/docs/342368>.
10. O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2008-yil 21-aprelda qabul qilingan. <https://www.lex.uz/docs/1342474>.
11. O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari to'plami. – T.: Adliya vazirligi, 2009-yil, 16-son.
12. "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.05.2015-yildagi O'RQ-386-son O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 21-son, 268-modda.
13. MF.UZ hamda IMDA.UZ saytlari ma'lumotlari.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/40253>.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urta sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5265-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5692504>.

